

## **BUXGALTERIYA HISOBI VA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING INVESTORLARI FAOLIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI**

**Egamberdiyeva Salima Rayimovna**

QarMII dotsenti

E-mail: [egamberdiyeva.salima@bk.ru](mailto:egamberdiyeva.salima@bk.ru)

**Xudoykulov Said Abdisoxatovich**

QarMII magistranti

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida uning uslubiy asoslari, bosqichlari va asosiy yo'nalishlari tadqiq etilgan. Bu boradagi xalqaro tajriba o'r ganilib, zarur taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, biologik aktivlar, investitsiyaviy kuchmas mulk, transformatsiya, moliyaviy hisobotni modernizatsiyalash.

### **Kirish**

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi va audit sohasiga alohida e'tibor berilib, so'nggi yillarda bir qator ijobji ishlardan amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentabrda "O'zbekiston respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-sonli Farmoni qabul qilindi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldag'i "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli Qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorni qabul qilishdan asosiy maqsad mamlakatimiz iqtisodiyotini jahonning rivojlangan davlatlari amaliyotida keng qo'llanilayotgan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirishdan iboratdir.

### **Asosiy qism**

Hoziri kunda mamlakatimizda korxonalar moliyaviy hisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro

standartlari (MHXS) asosida tayyorlash va taqdim qilishga ehtiyojlari paydo bo‘lmoqda.

Moliyaviy hisobot, ichki va tashqi (mulkdorlar, investorlar, xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar, kreditorlar, davlat organlarini va keng jamoatchilik) subyektlar bilan bo‘ladigan munosabatlarda biznes tillashuvining muhim vositasidir. Agar korxona buxgalteriya hisobotlarini tayyorlashda xalqaro standartlarga rioya qilmasa, bu ba’zi nomuvofiqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, bunday nomuvofiqliklar yuzaga kelmasligi uchun moliyaviy hisobotlarning yagona xalqaro standartlariga talab mavjud. Bo‘lajak xorijiy investor O‘zbekiston tashkilotlari tayyorlagan hisobotlarnitushunmaydi, shuning uchun raqamlar to‘g‘ri aks ettirilganiga ishonmaydi. Moliyaviy hisobotlarni MHHSga tarjima qilish, audit o‘tkazish juda qiyin, ko‘p vaqt va qimmatga tushishi mumkin.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni takomillashtirishga oid muammolar yuzasidan xorijiy iqtisodchi olimlardan R.Libbi, R.H.Hermanson, R.Entoni, B.Nidlz, F.Vud, J.D.Spiselend, D.Alexander, va P.Astaxov, V.Kachalin, M.I.Kuter, V.F.Paliy, Y.V.Sokolov, V.G.Getman, T.Y.Drujilovskaya va boshqa olimlar respublikamiz iqtisodi olimlardan R.D.Dusmuratov va U.I.Tulayev, K.B.Axmedjanov, A.K.Ibragimov, SH.I.Ilxamov, M.M.Tulaxadjayeva, I.N.Ismanov, B.I.Isroilov, A.A.Karimov, B.Y.Maxsudov, S.U.Mehmonov, H.N.Musayev, M.Q.Pardayev, I.T. Abdukarimov, A.X.Pardayev, M.E.Po‘latov, A.J.Tuychiyev, K.B.Urazov, B.K.Xamdamov, B.A.Xasanov, R.O.Xolbekov, Z.N.Kurbanov, I.N.Qo‘ziyev, I.Ochilov, M.Marpatov va boshqalar ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda mamlakatimiz buxgalteriya hisobi meyorlari hamda moliyaviy hisobotni tuzish qoidalari xalqaro standartlar talablariga moslashtirilmoqda.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarni hisob yuritish majburiyatidan ozod qiladi. Lekin ushbu korxonalarda barcha foydalanuvchilar guruhlari uchun sifatli va ishonchli axborot shakllantirish zarurati avvalgidek, dolzarb bo‘lib qolaveradi. Korxona hisob siyosati esa buniamalga oshirishga imkon beradigan asosiy hujjat bo‘lib qolaveradi.

Moliyaviy hisobotni boshqaruvning muhim dastagi sifatida modernizatsiyalash deganda, moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmunini axborot foydalanuvchilar manfaatlariga muvofiqlashtirish, axborotlarga ishlov berish va ularni uzatishda eng ilg‘or usul va uslublar hamda takomillashgan hisobot shakllarini joriy qilish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotni modernizatsiyalashda MHXS larga bosqichma-bosqich o‘tilmoqda.

Bizning fikrimizcha, dunyodagi moliyaviy hisob va moliyaviy hisobot jarayoni ilg‘or tajribasidan kelib chiqib, transformatsion ishchi balans tuzish amaliyotiga o‘tishimiz kerak. Ishchi balans schyotlarning qoldiqlarini transformatsion yozuvlar asosida moliyaviy hisobotning shakllariga o‘tkazishni amalga oshiruvchi muhim jadval (registr) hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bosqichida ishchi balans va jadvallari yordamida moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot, foya va zavarlar hamda boshqa to‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobot, pul mablag‘lari haqidagi hisobot, xususiy kapitalning o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobotlar tuziladi. Hisobotlar ijobiy auditorlik xulosasiga ega bo‘lgandan so‘ng top menejerlar tomonidan tasdiqlanadi va qaror qabul qiluvchilarga taqdimoti amalga oshiriladi.

S.N.Tashnazarov o‘z tadqiqotlari natijasida “mamlakatimizda amaldagi meyoriy-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotning shakllarini quyidagi tarkibda belgilash maqsadga muvofiq” deb hisoblaydi(1-jadval).

**1-jadval****Moliyaviy hisobotning asosiy majburiy shakllari<sup>1</sup>**

<b>№</b>	<b>«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunda</b>	<b>MHXSlariga muvofiq holda taklif etiladi</b>
1	Buxgalteriya balansi	Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot
2	Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot	Foyda va zararlar hamda boshqato‘plam daromadlar to‘g‘risidagi hisobot
4	Pul oqimlari haqidagi hisobot	Pul oqimlari haqidagi hisobot
5	Xususiy capital to‘g‘risidagi hisobot	Xususiy kapitalning o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobot
	Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar	Izohlar, hisob siyosatining qisqacha tavsifi va boshqa tushuntirishlar

S.N.Tashnazarov tomonidan tavsiya etilan “Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettirilayotgan axborotlar qatori”ni “77.3. Investitsiyaviy kuchmas mulk” bandiga quyidai o‘zarish kiritishni tavsiya etamiz:

Ushbu qatorda aks ettirilgan Investitsiyaviy kuchmas mulklarni mohiyatini aniqroq ochish uchun analitik hisob yuritib, quyidagicha ma’lumotlarni aks ettirish lozim.

**2-jadval****Investitsion mulk turlari bo‘icha hisobot<sup>2</sup>**

<b>t/r</b>	<b>Investitsion mulk turlari</b>	<b>Hisobot davri boshiga</b>	<b>Hisobot davri oxiriga</b>
		<b>Ming sumda</b>	<b>Ming so‘mda</b>
1.	Odatdagi xo‘jalik faoliyati doirasida qisqa muddatda sotish uchun emas, balki uzoq muddat davomida kapitalning qiymati oshishi uchun egalik qilinadigan yer.		
2.	Kelgusida foydalanilish maqsadi aniqlanmagan egalikdagi yer.		
3.	Tadbirkorlik subyekti tomonidan egalik qilinadigan hamda bir yoki bir necha operativ ijara shartnomalari asosida ijaraga berilgan bino.		
4.	Band bo‘lmagan, ammo bir yoki bir necha operativ ijara bo‘yicha ijaraga berishga mo‘ljallangan bino.		
5	Kelgusida investitsion mulk sifatida foydalanish uchun qurilayotgan yoki takomillashtirilayotgan mulk.		

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

MHXSlar va ilg‘or tajribalar asosida moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishi shart bo‘lgan axborotlar qatoridan kelib chiqib, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun transformasiya maqsadlarida moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot shakli taklif etildi. Jumladan, ushbu hisobotning uzoq muddatli aktivlarga doir qismi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (4-jadval).

Har bir korxona o‘zining hisob siyosatida bir davrdan ortiq xizmat qiladigan ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki ma’muriy boshqaruva jarayonida foydalanadigan «mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar» tarkibini standart talablaridan kelib chiqib mustaqil belgilashlari kerak, deb o‘ylaymiz. 5-son BHMS «Asosiy vositalar»da «mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar»ning xalqaro standartlarga muvofiq tarkibiy moddalarini keltirish hamda ishchi va mahsuldar hayvonlar hamda ko‘p yillik o‘simliklarni biologik aktiv sifatida tan olish tamoyillarini belgilovchi standart ishlab chiqish kerak. Xalqaro standartlar talablariga muvofiq «investitsiyaviy ko‘chmas mulk» (080-satr), «biologik aktivlar» (120-satr) hamda «sotish uchun mo‘ljallangan deb tasniflangan uzoq muddatli aktivlar va chiqib ketayotgan guruhlar aktivlari» uchun balansda alohida (150-satr)<sup>3</sup> satr ajratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

### 3-jadval

**Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda uzoq muddatli aktivlarga doir axborotlarni aks ettirish (ming so‘m)**

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot yili boshiga	Hisobot yili oxiriga
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Uzoq muddatli moddiy aktivlar, jami (040+050+060):	010	8010337	7147472
Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar boshlang‘ich qiymati (tarkibiy moddalari bo‘yicha)	020	13829829	12857480
Jamg‘arilgan amortizasiya (depresiasiya)	030	6627088	6708713
Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar balansqiymati (020-030)	040	7202741	6148767
O‘rnatilmagan asbob-uskunalar	050	123144	100296
Tugallanmagan kapital quyilmalar	060	684452	898409
Uzoq muddatli nomoddiy aktivlar balans qiymati (tarkibiy moddalari bo‘yicha)	070	-	-
Investitsiyaviy ko‘chmas mulk	080	-	-
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari va muddati uzaytirilgan xarajatlar	090	441438	441438
Uzok muddatli investitsiyalar (tarkibiy moddalari bo‘yicha)	100	462560	1235825
Muddati uzaytirilgan soliq aktivlari	110	-	-
Biologik aktivlar	120	48450	48450

<sup>3</sup> Muallif tomonidan taklif etilayotgan satr

I-bo‘lim jami (010+070+080+090+100+110+120)	130	8962785	8873185
Sotish uchun mo‘ljallangan deb tasniflangan uzoq muddatli va chiqib ketayotgan guruhalr aktivlari	150	-	-

Axborot foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirish hamda standartlar talablariga muvofiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda yoki izohlar va tushuntirishlarda aks ettirilishi shart bo‘lgan tarkibiy moddalari to‘g‘risida axborotlarga ega bo‘lish maqsadida «Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar harakati to‘g‘risidagi» hisobot tuzilishi maqsadga muvofiq.

Taklif etilayotgan hisobot shaklida aktivlarning tasarruf etilishi, xatolarni to‘g‘rilash va qadrsizlanishidan zarar kabi mazmunan yangi ko‘rsatkichlar aks ettirildi hamda ularni hisoblashning metodologiktartibi keltirildi. Bu esa hisobotlar va ularda aks ettirilayotgan ko‘rsatkichlarni MHXSlariga muvofiqlashtiradi hamda axborot foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos keladi.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida tashkil etishga keng e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda, avvalo, hisob siyosatini tuzish va unga rioya qilish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Zero aynan hisob siyosati xo‘jalik yurituvchi subyektlarda faoliyatni qonun talablariga muvofiq amalga oshirishda uslubiy vosita hisoblanadi. Shu boisdan hisob siyosatini tuzishda “Hisob siyosati, buxgalteriya baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar” 8-son BHXS talablariga rioya qilish maqsadga muvofiqdir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda hisob siyosatining bekamu ko‘sit amal qilishi uchun u mukammal ishlab chiqilishi zarur. Mazkur maqolada hisob siyosatinishakllantirishga ta’sir etuvchi omillar taklif etilgan. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar harrabariyati yuqorida sanab o‘tilgan omillarni inobatga olgan holda hisob siyosatini tuzsalar, mazkur subyektlarda buxgalteriya hisobi ishlarining samarali yo‘lga qo‘yilishi va tadbirkorlik riskining pasayishi ta’milanadi.

Ma’lumki, har qanday faoliyat, har qanday jarayon muayyan ketma-ketlik va aniq belgilangan tartib asosida tashkil etilsa, uning samaradorligi yanada oshishiga xizmat qiladi. Shu boisdan olib borilgan tadqiqotlar natijasida hisob siyosatini shakllantirish bosqichlari taklif etildi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan hisob siyosatining mazkur bosqichlar asosida shakllantirilishi amalga oshirilsa, ular o‘z oldilariga qo‘ygan strategik va taktik maqsadlarga erishishni ta’milanadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, respublikamizda bu borada ilmiy - tadqiqotlar olib borishni jadallashtirish lozim, chunki, mamlakatimiz jahon bozoriga shiddat bilan, dadil kirib bormoqda, bu esa iqtisodiyotimizni global bozor talablariga mos bo‘lishini taqozo qiladi.

### Xulosa va takliflar

Xalqaro va milliy standartlar talablariga muvofiq moliyaviy holatto‘g‘risidagi hisobotning asosiyligi (chiziqli) moddalariga tarkibiy quyi moddalarini ochish axborot foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos axborotlarni taqdim qilish imkoniyatini beradi. «Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar», tovar-moddiy zaxiralar, debitorlik va kreditorlik qarzlar hamda xususiy kapitalni tan olish, baholash, tasniflash va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish metodologiyasini takomillashtirish asosida «Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot»ning shakli ishlabchiqilganligi uning zarur va kerakli axborotlarni qamrab olishi hamda moliyaviy holatga haqqoniy baho berish imkoniyatlarini kengaytiradi va qabul qilinayotgan qarorlarning sifatli bo‘lishini ta’milanadi. Ichki axborot foydalanuvchilar manfaatidan kelib chiqib, «Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalarining harakati to‘g‘risidagi hisobot», “Investitsion mulk turlari bo‘icha hisobot” va “Biologik aktivlar to‘g‘risida hisobot” shakllarini joriy etish hamda hisobotga «mulk: yer, bino, mashina va asbob- uskunalar», «Investitsion mulk (turlari bo‘yicha)», va «Biologik

aktivlar»ning qiymati kelib tushishi, modernizasiya va rekonstruksiya, texnologik qayta jihozlash, tasarruf etilishi, qadrsizlanishi va boshqa omillar hisobidan o‘zgarishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar kiritilganligi uzoq muddatli moddiy aktivlardan samarali foydalanishni nazorat qilish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

### **Adabiyotlar ro’yxati**

1. Bahadirovich, A. F. (2022). Conditions for Forming the Digital Economy in the Republic of Uzbekistan. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2, 88-92.
2. Bahadirovich, A. F. (2021). The Main Directions of State Regulation of Entrepreneurial Activity. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 12, 22-27.
3. Egamberdiyeva Salima Rayimovna, & Aralov Sabir Javli ugli. (2022). Issues of Compliance of Financial Statements with International Standards. *Journal of Corporate Finance Management and Banking System ( JCFMBS) ISSN : 2799-1059*, 2(02), 1–10. <https://doi.org/10.55529/jcfmbs22.1.10>
4. Yakubova, S. S., Egamberdiyeva, S. R., & Boyqobilov, F. S. (2022). TA’LIM MUASSASASI VA ISHLAB CHIQARISH HAMKORLIGI SALOHIYATLI KADR TAYYORLASHNING ASOSIY OMILIDIR. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 211-216.
5. Tursunov, I., Jumayeva, G., & Ostanov, K. (2017). Features of innovation development of the economy Uzbekistan. In International conference on scientific development in North America (pp. 43-49).
6. Жумаева, Г. Ж., Хасанова, Ю. М., & Рузиев, З. И. СВОБОДНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЗОНЫ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.
7. Алимханова, А. Н., & Мицель, А. А. (2019). Оценка эффективности предприятий на основе метода DEA. Доклады Томского государственного университета систем управления и радиоэлектроники, 22(2), 104-108.
8. Равшанов, А. Д., Хасанов, Ш. Х., & Алимханова, Н. А. (2018). Қишлоқ хўжалигини инвестицион-инновацион ривожлантириш имкониятлари ва истиқболлари. Экономика и финансы (Узбекистан), (11), 9-14.
9. Эргашева, Н. (2022). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИДА ХИСОБ СИЁСАТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Innovatsion texnologiyalar*, 1(04), 108-111.
10. Azimova, H. E. (2022). ISSUES OF DEVELOPMENT OF FOREIGN TRADE WITH THE HELP OF FOREIGN INVESTMENTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 183-188.
11. Alisher Ravshanov 2022. The city as a social phenomenon: sociological and historical approaches. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL "THE CAUCASUS AND THE WORLD". 24 (May 2022), 153–158. DOI:<https://doi.org/10.52340/isj.2022.24.22>.
12. Kholmurodov, O. (2022). CONSOLIDATED FINANCIAL STATEMENTS AND THEIR THEORETICAL FOUNDATIONS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 432-436.
13. Normamatovich, Kholmurodov O., et al. "Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework." *JournalNX*, vol. 6, no. 05, 2020, pp. 53-56.
14. Bobaqulovich, R. A. (2022). PROBLEMS OF REFLECTING THE COST OF GOODS AND MATERIAL RESOURCES. *IJODKOR O’QITUVCHI*, 2(19), 151-159.

15. Эгамбердиевна, А. Х. (2021). ХОРИЖЙ ИНВЕСТИЦИЯЛарни ЖАЛЬ ЭТИШДА ҲУҚУҚИЙ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. Журнал Инновации в Экономике, 4(5).
16. Zoyirovna, M. K. (2022). DYNAMICS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS TO THE ECONOMY OF KASHKADARYA REGION AND THE FACTORS AFFECTING IT. Gospodarka i Innowacje., 29, 226-233
17. Zoyirovna, M. K. (2022). IMPORTANCE OF ENTERPRISES WITH FOREIGN INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY. Gospodarka i Innowacje., 29, 219-225.
18. БУТУНОВ, Ш. ВЛИЯНИЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И БАНКОВСКИХ ФАКТОРОВ НА УРОВЕНЬ НЕДЕЙСТВУЮЩИХ КРЕДИТОВ: РЕЗУЛЬТАТЫ ПО СТРАНАМ СНГ. ECONOMICS, (3), 33-42.
19. Mamasabirovich, M. K., & Hakimovich, B. K. (2023). ORGANIZATION OF PRIVATE CAPITAL ACCOUNTING IN ECONOMIC ENTITIES IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING (IFRS). Gospodarka i Innowacje., 32, 49-54.
20. Khakimovich, B. K. (2019). THE INTERNATIONAL TREATIES FOR THE AVOIDANCE OF DOUBLE TAXATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Review of law sciences, 1(7), 89-91.
21. Ziyadullayevich F. J. et al. MAMLAKATIMIZDA AGRAR SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI //Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions. – 2022. – C. 847-852.
22. Farmanov, J. Z., Rimboyeva, N., & Qaxramonov, F. (2022). MAMLAKATIMIZDA AGRAR SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(3), 1191-1197.
23. Musagaliev, A. J., & Shodiev, B. T. (2023). Issues of Efficient Usage of Pastures in the Development of the Cattle Farming Network. UTTAR PRADESH JOURNAL OF ZOOLOGY, 81-87.
24. Шодиев Б.Т. (2022). ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПАСТБИЩ. Экономика и социум, (10-1 (101)), 750-759.
25. Бердиев, А. Х., & Расулов, Х. К. (2020). Современный экономический механизм развития сельского хозяйства. Вестник науки и образования, (5-1 (83)), 41-45.
26. Hakimovich, B. A. (2021). Measures to Increase the Popularity Of Banking Services. International Journal of Modern Agriculture, 10(2), 3943-3949.
27. Oman, X., & Alisherovich, T. S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF CLUSTERS IN THE AGRICULTURAL SECTOR. Gospodarka i Innowacje., 29, 202-206.
28. Туровов, Ш. А. (2022). АЁЛЛАР МЕҲНАТИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 127-134.
29. Yakubova, S. (2021). Sh. The role of effective implementation of monetary policy in a pandemic condition/Sh. Sh. Yakubova, MD Raimova. Theoretical & Applied Science, (12), 104.

30. R. H. Djalilov. (2023). PROBLEMS OF CALCULATION OF VALUE ADDED TAX IN THE TAX SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Intent Research Scientific Journal, 2(3), 65–71. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/52>
31. Hamidovich, D. R. (2022). REGULATORY AND LEGAL FRAMEWORK FOR THE ORGANIZATION OF CAMERAL CONTROL IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ITS SIGNIFICANCE. Gospodarka i Innowacje., 30, 49-54.
32. Iskandarovich, R. R. (2022). QISHLOQ XO ‘JALIGIDA AGROKLASTERLARINI BARPO ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI. Gospodarka i Innowacje., 24, 390-394.
33. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, 2(7).
34. Музаффарова, К. З. (2021). МИНТАҚА ИҚТISODIЁТИГА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ ХОЛАТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. Архив научных исследований, 1(1).
35. Музаффарова, К. З. (2019). Роль иностранных инвестиций в развитии национальной экономики Узбекистана. Экономика и предпринимательство, (1), 411-414.
36. Аликулов, А. Т. (2020). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ТОРГОВЛИ НА ФОНДОВОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА. In Актуальные вопросы экономики (pp. 63-66).
37. Alikulov, A. T. (2022). In Uzbekistan, the use of the Stock Market in Attracting Financial Resources by Corporate Entities is One of the Tools. Journal of Marketing and Emerging Economics, 2(5), 66-69.
38. Murodov, J. (2020). Мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасида олиб борилаётган ижтимоий-иктисодий ислоҳатлар кўлами. Архив научных исследований, (29).
39. Установ Б., Маматкулов Б., Ахмедова М., Муродов Дж. и Абдикулова Д. (2021). Взаимосвязь взаимодействия сельскохозяйственного производства с объемом дехканского производства в Узбекистане. Илкогретим Онлайн , 20 (3).
40. Atajanovich, M. A., Faizullaevich, K. A., & Akhmatzhanovich, M. M. (2022, October). DEVELOPMENT OF THE INVESTMENT MECHANISM DURING THE TRANSITION TO THE DIGITAL ECONOMY. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 25.10, pp. 292-308).
41. Хуррамов Азамат Файзуллаевич, Аラлов Худоёр Мусақулович, & Маматов Мамажан Ахматжанович (2022). МИЛЛИЙ ИҚTISODIЁТНИНГ ТАРМОҚ ТАРКИБИНИ ТАКОМИЛЛАШУВИГА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. Экономика и финансы (Узбекистан), (7 (155)), 2-10. doi: 10.34920/EIF/VOL\_2022\_ISSUE\_7\_1